




MINTAQADA TINCHLIK, BARQARORLIK VA IZCHIL TARAQQIYOTNI TA'MINLASHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 4-avgust kuni Ashxobod shahrida Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov raisligida hamda Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon ishtirokida o‘tgan uch tomonlama sammitda ishtirok etdi.



Uchrashuv kun tartibiga muvofiq, suv resurslaridan oqilon foydalanish, energetika sohasini rivojlantirish, transport-logistika salohiyatini oshirish bo‘yicha o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida Turkmaniston Prezidentiga sammitni tashkil etgani va ko‘rsatilayotgan mehmondo‘stlik uchun hamda Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga tadbiri o‘tkazish tashabbusi uchun minnatdorlik bildirdi.

Mintaqa mamlakatlarining mustarak ochiqlik, birlamlik va hamijahatlik siyosati o‘zining amaliy natijalarini berayotgani qayd etildi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, energetika va logistika sohalarida savdo amaliyotlari va kooperatsiya kelishuvlari bir necha karra oshdi. Hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashnuvlar kengaydi.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlari Maslahat uchrashuvlarining samarali faoliyati qayd etildi. Yakkilik tufayli ikki tomonlama va mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalari yuzasidan o‘zaro maqbul yechimlar qabul qilinayotgani ta’kidlandi.

O‘zbekiston Prezidenti yangi xavf-xatarlarga e’tibor qarab, ularga munosib va chuqur o‘ylangan javoblarni birgalikda izlash zarurligini ko‘rsatib o‘tdi.

Bu mintaqada suv tanqisligi tobora ortib, keyingi yillarda keskin tus olayotgan sharoitda, ayniqsa, muhimdir.

Suv tejaydigan ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, suv resurslarini boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish, sel va toshqin suvlarini to‘plash va saqlash uchun infratuzilmani birgalikda rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda hamkorlikni faollashtirish taklif qilindi.

— Bu masalalarda Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasining butun salohiyatini hamda Jahon banki va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki kabi sherik tashkilot va tuzilmalar doirasidagi hamkorlikni ishga solish lozim, — dedi davlatimiz rahbari.

So‘ng Prezidentimiz Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida energetika sohasida, shu jumladan, energiya resurslarini yetkazib berish va ularning tranziti borasida yaqin, samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilganini ta’kidlandi.

Mamlakatlarimizning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga intilishi mustarak ekanini hisobga olib, gidro va

issiqlik energetikasida loyihalarni birgalikda amalga oshirish tashabbusi ilgari surildi.

O‘zaro integratsiyalashgan transport infratuzilmasini yaratish borasidagi sa‘y-harakatlarni birlashtirish masalasiga alohida e’tibor qarattildi. Mamlakatimiz yetakchisi “O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron” yo‘lagining rivojlantirishi, Transkaspiy yo‘nalishi salohiyatining ishga solinishi Markaziy Osiyoning Sharq — G‘arb va Shimol — Janub xalqaro yo‘laklaridagi tranzit markazi sifatidagi jolibadorligini oshirishiga ishonch bildirdi.

Shu maqsadda xalqaro yuk tashuvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish, raqamlashtirishni jadal-lashtirish va nazorat-o‘tkazish maskanlarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish yo‘lida birgalikda ishlash taklif qilindi.

Dunyoning bosh maydoni — Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida sa‘y-harakatlarni muvofiqlashtirish va mintaqalari tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslarni o‘zaro qo‘llab-quvvatlash muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari so‘zining yakunida O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va

ravnaqni ta‘minlashga qaratilgan tashabbuslarni bundan buyon ham qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini ta’kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Ashxobod shahrida Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalar ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar jadal rivojlanib, mamlakatlarimiz strategik sherikligi izchil mustahkamlanayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Savdo, sanoat, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport sohalarida va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlik kengayib borayotgani ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ashxobod shahrida Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan ham muzokara o‘tkazdi.

Uchrashuvda davlat rahbarlari qardosh xalqlarimiz o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalariga asoslangan O‘zbekiston — Turkmaniston chuqurlashgan strategik sheriklik munosabatlarining dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

Amaliy hamkorlik barcha yo‘nalishlarda kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Oliy darajadagi kelishuvlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Hukumatlar, vazirlik va idoralar o‘rtasidagi aloqalar tizimli tus olgan.

O‘zaro savdo hajmi oshib bormoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida manfaatli hamkorlik kengaymoqda. “Shovot — Toshovuz” qo‘shma savdo zonasini tez fursatda ishga tushirish zarurligi qayd etildi.

Birgalikdagi kooperatsiya loyihalarni ilgari surish, hududlar o‘rtasidagi almashnuvlar va madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish muhimligi ta’kidlandi.

Mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham atroficha fikr almashildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga amaliy tashrif yakunlandi.

O‘ZA

TEMIR YO‘L TRANSPORTI SOHASI XODIMLARIGA

Hurmatli do‘stlar!

Avvalo, sizlarni — zahmatkash ishchi va xizmatchilar, quruvchi va muhandislarni, mashinist va vagon kuzatuvchilarni, soha faxriylarini Temir yo‘l transporti xodimlari kuni bilan chin dildan samimiy tabriklayman.

Yangi O‘zbekistonni — jadal rivojlanib, dunyoga yuz tutayotgan davlat va jamiyatni barpo etishda siz, azizlarning o‘ringiz va his-sangiz beqiyos ekanini barchamiz minnatdorlik bilan e’tirof etamiz.

Jonajon Vatanimiz mustaqilligining 32 yiligi arafasida nishonlanayotgan ushbu qutlug‘ ayyomda O‘zbekiston temir yo‘llari istiqloq davrida katta rivojlanish yo‘lini bosib o‘tganini ta’kidlashimiz tabiiydir.

Bu davrda 2 ming 400 kilometr dan ko‘proq yangi temir yo‘llar qurilib, foydalanishga topshirildi, 3 ming kilometr dan ziyod yo‘llar elektrlashtirildi, 1 ming 100 kilometr dan ortig‘i esa reabilitatsiya qilindi.

Hech shubhasiz, temir yo‘l tarmoqlarining kengayib borayotgani barcha hududlarimizni o‘zaro mutanosib rivojlantirish, boy mineral xomashyo resurslarini kompleks o‘zlashtirishda yangi-yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Buni “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilganidan buyon yuk va yo‘lovchi tashish hajmi 2 barobardan ziyod ko‘paygani, 1,6 milliard tonna yuk tashilib, 380 million nafar yo‘lovchi manzilga yetkazilgani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Sizlar kabi minglab fidoyi yurtdoshlarimizning mas’uliyatli mehnati tufayli mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmaga ega

bo‘lgan, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlay oladigan yaxlit temir yo‘l tizimi barpo etilib, respublikamizning barcha hudud va mintaqalarini ishonchli va samarali bog‘lab kelmoqda.

Hozirgi kunda yurtimiz zamonaviy transport kommunikatsiyalari va yuksak tranzit salohiyatiga ega bo‘lgan davlat sifatida Sharq va G‘arb, Janub va Shimolni o‘zaro bog‘laydigan xalqaro temir yo‘llarning muhim halqasiga aylangan bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Poytaxtimizdan Samarqand, Buxoro, Qarshi kabi tarixiy shaharlarimizga qatnayotgan zamonaviy “Afrosiyob” elektropoyezdlari milliy temir yo‘l transportimizning brendiga aylandi. Nasib etsa, kelgusi yilda Buxoro — Xiva yo‘nalishida ham yuqori tezlikda harakatlanadigan yo‘lovchi poyezdlari qatnovini yo‘lga qo‘yamiz. Bu esa aholimiz uchun har tomonlama qulaylik yaratish bilan birga, turizm sohasi rivojini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston temir yo‘lchilari aeroportlar, metro liniyalari, ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlar qurish, konlarni o‘zlashtirish borasida ham muhim strategik loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Mamlakatimiz Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib temir yo‘l sohasida o‘zining og‘ir mashinasozlik va quyuv-metallurgiya sanoatiga ega bo‘ldi. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan yirik sanoat korxonalarini barpo etilib, vagon ishlab chiqarish, lokomotivlar, yuk va yo‘lovchi vagonlarini modernizatsiya qilish va ta’mirlash yo‘lga qo‘yildi.

Eng muhimi, sohada amalga oshirilayotgan murakkab boshqaruv va texnologik ishlarning barchasi o‘zimizning mahalliy mutaxassislarimiz, azmu shijoatli yoshlarimiz tomonidan bajarilmoqda.

Fursatdan foydalanib, ushbu tizimda siddiqdildan mehnat qilayotgan barcha yuksak mahoratli, jonkuyar insonlarga o‘z nomidan, xalqimiz nomidan tashakkur bildiram.

Hurmatli bayram ishtirokchilari! Mamlakatimiz temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilish, sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etgan holda yirik va istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, yangi fikrlaydigan, Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qiladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash borasida hali ko‘p ish qilishimiz kerakligini albatta barchamiz yaxshi tushunamiz.

O‘tgan davrda katta bilim va tajriba orttirgan temir yo‘l sohasi xodimlari o‘zlarining mardona mehnati, bunyodkorlik salohiyati bilan oldimizda turgan vazifalarni muvaffaqiyatli ado etadilar, deb ishonaman. Bu maqsadlariga erishish uchun davlatimiz tomonidan barcha zarur sharoitlar yaratib berilishini alohida ta’kidlayman.

Siz, azizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor tabriklab, kelgusi faoliyatingizda yangi yutuq va omadlar, xonadonlaringizga tinchlik, baxt va qut-baraka tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti



TEMIR YO‘L TRANSPORTI XODIMLARI KUNI

MANZILLARNI YAQINLASHTIRAYOTGAN LOYIHALAR



Prezidentimizning 2017-yil 2-avgustdagi farmoniga asosan, har yili avgust oyining birinchi yakshanbasi O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti xodimlari kuni sifatida keng nishonlab kelinadi.

Temiryo‘lchilar bu yilgi kasb bayramini Toshkent shahri va mamlakatimizning turli hududlarida xalqimiz farovonligi, davlatimizning iqtisodiy yuksalishi, qolaversa, kelajagi uchun katta naf beradigan loyihalarni amalga oshirish bilan kutib olaypti.

Davomi 2-betda



YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!

OLTIN VOHA

ISLOHOTLAR SHIDDATIGA MOS TARAQQIY ETMOQDA

Joriy yil 2-avgust kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatiga tashrif buyurib, yirik sanoat majmualari va sport obyektlari bilan tanishdi, yangi korxonalarini ishga tushirish marosimida ishtirok etdi.

Bu tashrif milliy taraqqiyotimizning yangi, yanada shiddatli va jo‘shqin islohotlari ruhiga hamohang kechgani bilan ahamiyatli bo‘lganini ta’kidlashni

istardik. Boisi, Prezidentimizning hududlarga tashriflari chog‘ida saylovchilar bilan uchrashuvlarda ilgari surilgan keng ko‘lamli hayotiy tashabbuslarni amalga

tatbiq etishga doir g‘oyat muhim masalalar yechim topmoqda.

Davomi 3-betda



BIZ VA DUNYO

ASHXOBODDA BO'LIB O'TGAN UCH TOMONLAMA SAMMIT

QO'SHNI DAVLATLAR O'RTASIDAGI ALOQALARNI SAQLASH VA MUSTAHKAMLASHDA MUHIM PLATFORMAGA AYLANDI

O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston yetakchilarining sammiti formatning yangiligi, shuningdek, suvdan foydalanish, energetika, transport va boshqa muhim masalalarni o'z ichiga olgan kun tartibi bilan xorijiy mamlakatlarning siyosiy va ekspert doiralari katta qiziqish uyg'otdi.

Ekspertlarning fikricha, ushbu uchrashuv Markaziy Osiyo mintaqasi salohiyatini mustahkamlash va Yevroosiyo qit'asining boshqa mintaqalari bilan o'zaro bog'liqligini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi loyihalar ishlab chiqilishiga hamda mavjud umumiy loyihalar amalga oshirilishini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Fernando MORAGON,
Ispaniyadagi Yevroosiyo o'rganish markazining rahbari,
"Diario Arbat" elektron nashri direktori, Ispaniya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish assotsiatsiyasi rahbari:

— Biz hozirgi paytda O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan sheriklikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga intilayotganini aniq ravshan kuzatib turibmiz. Bu, shubhasiz, Markaziy Osiyo mintaqasidagi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ustuvorliklariga hamda milliy manfaatlariga har jihatdan to'liq javob beradi.

Shu bois, Ashxobodda O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston davlat rahbarlarining uch tomonlama uchrashuvi o'tkazilishi, mening fikrimcha, Markaziy Osiyoda sheriklikni rivojlantirish masalalarini muhokama qilish uchun yangi formatlarni ishga tushirishning boshlang'ich nuqtasi bo'ladi.

Prezidentlar tomonidan muhokama qilingan transport-logistika, suv-energetika, agrosanoat

va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish kabi qator masalalar qamrovi mintaqaviy kun tartibidagi o'tkir va murakkab masalalarni hal etish yuzasidan alohida manfaatdorlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Shu nuqtayi nazaridan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uch tomonlama uchrashuvi haqida gapirar ekanman, ushbu sammit qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun noyob va muhim maydon ekanini qayd etishni istar edim.

O'ylaymanki, ushbu uchrashuvdan ko'zlangan asosiy maqsad o'zaro hamkorlikni tizimlashtirish va birgalikdagi sa'y-harakatlar vositasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy loyihalarni ularga hamma uchun maqbul bo'lgan holdagi shakl va mazmunda birlashtirish bilan izohlanadi.

Viktoriya PERSKAYA,
Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universitetining Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tadqiqotlari instituti direktori:

— Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlarining zamonaviy iqtisodiy rivojlanishida O'zbekistonning o'zni shakllantiruvchi bo'g'inning markazi sifatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganiga e'tibor qaratmoqchiman.

So'nggi yillarda O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari haqiqatan ta'sirchan bo'ldi. Taxmin qilinayotganidek, mamlakatning 2023-2024-yillarda iqtisodiy o'sishi 5 foizdan ortiq bo'lishi kutilmoqda. Bu, albatta, butun dunyoda retsessiya davom etayotgan bir paytda jahon iqtisodiyoti uchun kutilmagan sur'atdir.

Ikkinchi jihat mamlakatdagi demografik rivojlanish bilan bog'liq. Hozir O'zbekiston aholisi 36 milliondan oshdi, bu mamlakat turmush darajasi yuksalayotganidan, O'zbekiston xalqining kelajakka bo'lgan ishonchidan dalolat beradi.

Aynan mana shunday omillar bugun O'zbekistonga o'zaro mintaqaviy sheriklik

jalb etayotgan Markaziy Osiyo mamlakatlari bog'lovchilik va markaziy bo'g'in rolini bajarishi uchun imkon beradi.

Markaziy Osiyoning uch mamlakati sammiti mintaqaviy hamkorlik izchil yo'nalish bo'ylab borayotganidan dalolatdir. Chegara va transport-logistika muammolari hal qilinayotgani barobarida ushbu mamlakatlar uchun maqbul investitsiya muhiti yaratilmoqda. Shu bois, O'zbekistonning nuqtayi nazari va uning Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasidagi shakllantiruvchi bo'g'in markazi sifatidagi o'zni katta e'tiborga molik.

Shuni ham ta'kidlashni istardimki, Afg'oniston bilan aloqalarni rivojlantirish va munosabatlarni qurish borasida ham O'zbekiston juda muhim o'rin egallaydi. Buyuk ipak yo'lini, jumladan, Afg'oniston orqali rivojlantirish bo'yicha tashabbuslar sammit o'tkazayotgan Osiyoning ushbu uch davlati masalalari bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekistonni ichki va tashqi iqtisodiy rivojlantirishning strategiyasi oqilona shakllantirilgani menda katta taassurot qoldirdi. Bugungi kunda O'zbekiston milliy o'ziga xoslikni saqlagan holda suveren siyosat yuritmoqda.

ASHXOBODDA O'ZBEKISTON, TOJIKISTON VA TURKMANISTON DAVLAT RAHBARLARINING UCH TOMONLAMA UCHRASHUVI O'TKAZILISHI, MENING FIKRIMCHA, MARKAZIY OSIYODA SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARINI MUHOKAMA QILISH UCHUN YANGI FORMATLARNI ISHGA TUSHIRISHNING BOSHLANG'ICH NUQTASI BO'LADI.

Kuban ABDIMEN,
qirg'izistonlik siyosatshunos:

— Ashxobodagi sammit mintaqa tarixida noyob voqea bo'ldi. Shu paytga qadar Markaziy Osiyoning barcha davlatlari Prezidentlari ishtirokida ikki va ko'p tomonlama formatdagi rasmiy uchrashuvlar bo'lib o'tgan.

Ashxobodda mintaqaning uch mamlakati rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tgani sababi energetika va transport-logistika masalalari unda asosiy mavzular bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin.

Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun transport va logistika kun tartibi yirik qo'shnilar bilan yaqinlashishda tobora muhim omil bo'lib qolmoqda. Mintaqadan janubga deyarli barcha tovarlar Turkmaniston orqali o'tadi. Boshqa tomondan, mintaqadan yuk tashish endi Osiyo va Yaqin Sharqning janubi-g'arbiy mintaqasiga ancha qisqa yo'l orqali yetkazib berilishi mumkin va u ham Turkmaniston orqali o'tadi. Ma'lumki, birinchi yarim yillikda O'zbekiston qovun yetishtirishdan rekord darajada hosilni eksport qilgan, ularning bir qismi Janubiy Osiyo

mamlakatlariga Turkmaniston orqali yetkazib berildi.

Shu bilan birga, Tojikiston uzoq vaqtdan beri Turkmaniston orqali boshqa mamlakatlarga yuk tashish yuzasidan muzokaralar olib bormoqda. Ushbu format esa ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarda juda muhim masalalarni hal qilish imkonini beradi.

Shuningdek, Turkmaniston ham mintaqadagi o'z qo'shnilari bilan o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdordir. Turkmanistondan Xitoyga gaz quvuri O'zbekiston orqali o'tadi, bu tabiiy gaz hisobidan mablag'larning ishonchli kirib kelishini ta'minlaydi.

Ashxobod sammitining barcha ishtirokchilari o'zaro foydali hamkorlikdan manfaatdor. Shu bois, Turkmaniston poytaxtidagi sammit mintaqa rahbarlarining Markaziy Osiyodagi besh davlatning yanada yaqinroq integratsiyalashuvi borasidagi sa'y-harakatlarning davomi bo'lib qolishi mumkin.

"Dunyo" AA

OCHIQ MULOQOT OLDIDAN

MAQSADIMIZ — MAHSULOTIMIZNI JAHON BRENDLARI DARAJASIGA OLIB CHIQISH



Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvi an'anaga aylandi.

Aytish mumkinki, ushbu uchrashuv biz, soha vakillari uchun o'ziga xos bayram. Chunki unda tadbirkorlar takliflari eshitiladi, ularni qo'llab-quvvatlash, tizimli muammolarini hal etish masalalari muhokama qilinadi.

Rustam IKROMOV,
Jizzax shahridagi "Iruskon" qandolat korxonasi rahbari

Yangi imkoniyat va imtiyozlar taqdim etilishi, auksionda yer sotib olgan tadbirkor biror-bir sababga ko'ra faoliyatini yakunlasa, uning yerga bo'lgan huquqi saqlab qolinishi kabi yangiliklar tadbirkorlarning emini-erkin faoliyat yuritishi, rivojlanishi, yangi ish o'rinlari tashkil etishiga zamin yaratadi.

Ushbu imkoniyatlardan foydalanib, uchrashuvdan so'ng bor e'tiborimizni ishimizni yanada kengaytirishga qaratdik. 2022-yilning oktyabr oyida "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasida umumiy qiymati 160 milliard so'm bo'lgan yangi "Iruskon" qandolat korxonasi ishga tushirdi. Korxonaning yillik quvvati 12 ming tonna turli qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan bo'lib, dastlabki bosqichda qariyb 100 ta yangi ish o'ri yaratildi. Rossiya, Turkiya, Germaniya va Italiya texnologiyasi asosida "Deya" brendi bilan ichki va tashqi bozorga xaridor-gir mahsulotlari ishlab chiqaryapmiz. Hozirgi kunda mahsulotimizning yarmidan ko'pi Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Afg'oniston kabi davlatlarga

eksport qilinmoqda. Ahamiyatli jihati, endilikda shunday mahsulotlarni yurtimizga import qilish hajmi qisqarmoqda. Bu, o'z navbatida, valyutani iqtisod qilishga imkon yaratyapti.

Kelgusida korxonamizning ikkinchi bosqichini ishga tushirish uchun Yevropadan 5 million dollar qiymatda asbob-uskuna olib kelishni rejalashtirganmiz. Natijada yana besh yuzdan ziyod hamyurtimizni doimiy ish va yuqori maosh bilan ta'minlaymiz.

Yaqin yil fevral oyida Prezidentimiz viloyatimizga tashrifi chog'ida korxonamiz faoliyati bilan tanishdi. Ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirib, korxonamiz faoliyatini yanada rivojlantirish, mahalliyashtirish ko'rsatkichlarini oshirish, eksport geografiasini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha topshiriqlar berdi. Shundan kelib chiqib, ayni paytda korxonamizning ikkinchi bosqichini ishga tushirish, eksport geografiasini kengaytirish orqali "Deya"ni jahonga mashhur brendga aylantirish harakatlidamiz.

Tadbirkorlikni 2000-yilda xususiy tadbirkor sifatida non pishirishdan boshlaganman. Keyinchalik qandolat mahsulotlari tayyorlash sirlarini o'rgana boshladim. 2009-yili "Bonu shirinliklari" MCHJ tashkil etib, xorijdan yangi texnologiya olib keldik. "Deya" brendi ostida qisqa muddatda oyiga o'rtacha 45-50 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydik. Bu o'sha yillari katta natija edi.

Bulami yozishimdan maqsad, har kimki yaxshi niyat bilan, oldiga yuksak maqsadlarni qo'yib harakat qilsa, albatta murodiga yetadi. Zero, yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, ish-bilmonlik muhitini yaxshilash va shu yo'l orqali aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Prezidentimizning ish-bilmon va tadbirkorlar dardini tinglash, muammolarini hal etish, ularga yaqindan yordam berish, og'irini yengil qilishga e'tibor qaratgani bizga kuch bag'ishlaydi. Bundan unumli foydalanib, ezgu maqsadlarga erishish harakatomizga bog'liq.

TEMIR YO'L TRANSPORTI XODIMLARI KUNI

MANZILLARNI YAQINLASHTIRAYOTGAN LOYIHALAR



Boshlanishi 1-betda

Ulardan biri poytaxtimizda bunyod etilayotgan yer usti halqa metrosidir. Xususan, Qo'lyiq — Quruvchilar yo'nalishida 5 ta bekat foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 13 hamda 14-bekatlarda davom etayotgan bunyodkorlik ishlari yil yakuniga qadar bitkazilishi rejalashtirilgan.

Yirik loyihalardan yana biri 2017-yilda qurilgan va Qizilqum sahosining qoq o'rtasidan o'tgan Buxoro — Urganch — Xiva temir yo'lini elektrlashtirish ishlaridir. Umumiy

uzunligi 465,5 kilometrlik temir yo'l loyihasi to'liq yakunlangach, tarmoq tasarrufidagi po'lat izlarning elektrlashtirilgan qismi qariyb 50 foizga yetadi.

Elektr poyezdning samaradorligi an'anaviysiga nisbatan 4,5 barobar yuqori. Masalan, poyezdlarning yuqori tezligi soatiga 250 kilometr gacha bo'lganda yo'lovchilarning Toshkentdan Urganchgacha yetib borish vaqti 14 soatdan 6 soatga, Buxorodan Xivagacha 8 soatdan 3 soatgacha qisqaradi. Bu yurtdoshlarimiz va xorijlik mehmonlarga katta qulaylik yaratib, turizm rivojida muhim omil bo'ladi.



Hozirgi loyihaga hamohang tarzda Nukus shahrigacha bo'lgan temir yo'lini ham elektrlashtirish rejalashtirilmoqda. Buning natijasida Toshkent bilan Nukus o'rtasidagi qatnov vaqti 16 soatdan 7 soatgacha qisqaradi.

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining "Ko'prikkurilish tresti" unitar korxonasi mutaxassislari Xorazm viloyatini Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan bog'lovchi, Amudaryo ustidan o'tadigan yangi temir yo'l va avtomobil yo'li qo'shma ko'prigini ham bunyod etmoqda. Bu ko'prikkurilish Qoraqalpog'iston va Xorazmni yanada yaqinlashtirishda, balki butun mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Jamiyat tasarrufidagi "Ko'prikkurilish tresti" unitar korxonasi 13-ko'prikkurilish otryadi jamoasi tomonidan Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi Nazarbek shaharchasi hududidan o'tgan temir yo'l va avtomobil yo'llari kesishmasida yangi va zamonaviy yo'lovchilarning qurilishi ham tugatilib, foydalanishga topshirildi. Bu esa ushbu hududda turadigan va mazkur yo'nalishdan foydalanadigan odamlar uchun katta qulaylik yaratdi.

Bu kabi loyihalar soha xodimlarining zalvarli mehnati tufayli ro'yobga chiqmoqda. Bu yaxshi. Biroq bugun shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Yanada katta marralar, vazifalar ustida ishlash, odamlar uzoqini yaqin qilish, sifati xizmat ko'rsatish bilan rozi qilish davr talabi, taraqqiyot kufolati, xalqimiz hayotining yanada farovon bo'lishi demakdir. Shunday ekan, bugungi zamon nafasini his qilgan temiryo'lchilar katta mas'uliyat va yangicha yondashuvlar asosida ishlashga intilmoqda. Magistralarda yuk va yo'lovchi qatnovlarini oshirish hamda xavfsizligi va ishonchligini ta'minlagan holda tizimda yangi loyihalarni ro'yobga chiqarish ustida izlanmoqda.

An'anaga ko'ra, bu yilgi kasb bayrami arafasida ham 76 ming temiryo'lchidan bir guruhi soha rivojiga qo'shayotgan fi-doyi mehnati uchun taqdirlandi. Uzoq yillar davomida samarali mehnat qilayotgan 29 kishi "Faxriy temiryo'lchi" ko'krak nishoniga, faxriy yo'riqlarga sazovor bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston temiryo'lchilari va transport quruvchilari respublika kengashi tomonidan yuzlab ilg'or temiryo'lchilar moddiy rag'batlantirildi.

Abduravon QORJOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



YANGI HAYOT UCHUN,
YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

OLTIN VOHA

ISLOHOTLAR SHIDDATIGA MOS TARAQQIY ETMOQDA



Sayyora FAYZIYEVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi
Toshkent viloyati bo'limi rahbari

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbarining viloyatimizga tashrifidan ruhlangan holda, bugungi islohotlar ko'lami va mazmun-mohiyatiga doir fikr-mulohazalarimiz bilan bo'lishgimiz keldi.

Har bir mamlakatning milliy davlatchilik tarixida tub burilish yasanagan alohida muhim voqe'lar, kuchli va barqaror taraqqiyotga zamin yaratgan davrlar bo'ladi. Mamlakatimizda keyingi yillarda yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Rennasans poydevorini yaratish yo'lidagi ulkan buniyodkorlik ishlari, tarixiy yangilanish jarayonlarini tom ma'noda O'zbekiston davlatchilik tarixidagi shunday muhim davrlardan biri, deyish mumkin. Buning to'liq asoslarimiz bor.

Xususan, har bir soha va tarmoqda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida kechayotgan yangilanish jarayonlari yurtdoshlarimiz uzoq yillar orzu qilgan o'zgarishlar, katta muvaffaqiyatlarga zamin bo'lmoqda. Buni istalgan yo'nalishning kechagi va bugungi holatini taqqoslash orqali yanada ravshanroq ko'rish mumkin.

Masalan, aksariyatimiz farzandlarimizni o'qitish masalasida, ayniqsa, bog'cha va oliy ta'lim tizimi bilan bog'liq qator murakkab qiyinchiliklarga duch kelganimiz. Ya'ni bolangizni berishga bog'cha yo'q, bor bo'lsa, joy muammo. Oliyohda tahsil olish esa eng og'riqli masala: kvotalar cheklangan, kirish imtihonlari sirli jumboq...

Bugun-chi?! Yoshlarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimiga e'tibordan boshlandi. Yurtimizdagi bog'chalar soni 5 mingdan 29 mingtaga oshirilib, tarbiyalanuvchilar qamrovi 24 foizdan 70 foizga yetkazildi.

Oliy ta'lim muassasalari soni 77 tadan 210 taga yetdi. Bakalavriatga qabul kvotalari 5 barobar, magistraturaga 8 barobar, doktoranturaga 10 barobar oshirildi. Natijada oliy ta'limga qamrov avvalgi 9 foizdan 38 foizga ko'paydi. Maktab bitiruvchilariga OTMga kirishda bir yo'la 5 ta oliy ta'lim muassasasini tanlash imkoniyati yaratildi.

Yana bir muhim o'zgarish ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatgan majburiy mehnatga chek qo'yilishi bilan bog'liq. Avvallari ijtimoiy soha vakillari bevosita yoki bilvosita paxta terimi, obodonlashtirish kabi majburiy mehnatga jalb etilardi. Bu jarayonda bolalarning ishtirok etishi juda achenarlari edi.

Hozir-chi?! Vaziyat tamoman o'zgardi. Majburiy mehnatga eng ko'p yo'l qo'yiladigan har ikki tarmoqda ishlar tartibga solindi. Jumladan, ishchi yurtdoshlarimiz haq to'lanadigan obodonlashtirish ishlariga jalb etilmoqda. Paxtachilik, umuman, qishloq xo'jaligi sohasida klaster tizimi yo'lga qo'yilishi nafaqat majburiy mehnatning oldini olish, balki sohani sanatalashtirishga xizmat qilyapti.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun yurtimizda 130 dan ortiq paxta to'qimachilik klasteri faoliyat yuritmoqda. So'nggi yillarda to'qimachilik yo'nalishida 350 ga yaqin yirik fabrika ishga tushirildi, ishlab chiqarish hajmi 2016-yildagiga nisbatan 5 barobar oshdi. Eksport tarkibida chuqur qayta ishlangan tayyor mahsulot ulushi keskin oshgani diqqatga sazovor, albatta. Xususan, 2016-yilda xorijga eksportning 65 foizi ip-kalava bo'lgan, 2021-yilda eksport tarkibida tayyor kiyimlar ulushi 32 foizni tashkil etdi. Besh yil avval yurtimizda yetishtiril-

gan paxta tolasining atigi 40 foizi qayta ishlangan bo'lsa, bugungi kunda 100 foizi o'zimizda qayta ishlanmoqda.

Yoki qurilish sohasini olaylik. Ushbu tarmoq bugun iqtisodiyotimizning "drayver" yo'nalishlaridan biriga aylandi. Oxirgi olti yilda mamlakatimiz bo'yicha qariyb 300 mingta yoki avvalgi yillardagiga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joy qurilganining o'ziyoq shundan dalolat beradi.

Bundan olti-yetti yil oldin asosan paxta, oltin, mis va gaz xomashyosini sotib, daromad ko'rgan mamlakatimiz qisqa muddatda mintaqamizda iqtisodiyoti diversifikatsiya qilingan, tayyor mahsulotlar eksporti jadal o'sib borayotgan davlatga aylangani, sanoat va ishlab chiqarish sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimi yaratilgani, geologiya va bazaviy tarmoqlarning mutlaqo yangi samarali mexanizmlari ishlab chiqilgani ham fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi.

Kambag'allikni qisqartirish, aholini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash, yo'l qurilishi, qulay tadbirkorlik muhiti, davlat xizmatlari ko'rsatish... Ochig'i, yurtimizdagi islohotlar samarasi haqida har qaysi yo'nalish bo'yicha juda uzoq gapirish mumkin. Buni, ayniqsa, uzoq yillar shu yurtda yashab, fuqarolig bo'lmagan, Prezidentimizning insonparvar siyosati tufayli bugungi kunga kelib, bu baxtga musharraf bo'lganlar, dunyoning turli urush o'choqlaridan Vatanga olib kelinganlar, davlatimizning har tomonlama qo'llab-quvvatlovi orqali ijtimoiy himoyaga muhtojlikdan tadbirkorlarga aylanayotganlar, oliyohlarda imtiyozli ta'lim olayotgan opa-singillarimiz yaxshi anglaydi, albatta.

Qisqa davrda mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi tarixiy ko'rsatkich — 80 milliard dollardan oshdi. O'z navbatida, eksport hajmi 1,5 barobar, xorijiy investitsiyalar hajmi 3 barobar o'sdi. Buning natijasida aholining xarid qobiliyati va o'rtacha oylik ish haqi qariyb 2 barobar oshdi.

E'tiborli va e'tirofli jihati, islohotlar shiddatiga mos ravishda Toshkent viloyatida ham barcha soha va tarmoqlarda yuqori natijalar qo'lga kiritildi.

"Oltin voha" deya ta'riflanadigan bu viloyat yuqori iqtisodiy salohiyatiga ega.



etish kabi ko'lami ishlar hisobiga minglab yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Umuman olganda, bugun viloyat yirik qurilishlar, obodonlashtirish, tarixiy o'zgarishlar, yangilanishlar og'ushida. Ko'hna Navkat o'rinda viloyatning yangidan qurilayotgan ma'muriy markazi — Nurafshon shahri kundan-kun ko'kka bo'y cho'zmoqda. Birgina 2021-2022-yil davomida viloyatda 258 ta uy — 9 ming 432 xonadon qurilgan bo'lsa, bugun aksariyat shahar va tumanlarda "Yangi O'zbekiston" massivlari qad rostlayapti.

So'nggi olti yarim yilda viloyatda metallurgiya, elektrotexnika, to'qimachilik, kimyo, farmatsevtika, mashinasozlik kabi "drayver" sohalarda 15 ta mega, 650 ga yaqin yirik va o'rta, 3 mingta kichik sanoat loyihasi ishga tushirildi. 600 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratildi. Eksport hajmi 2,5 barobar ko'payib, 2 milliard dollardan oshdi. Bularning natijasida o'tgan davr mobaynida viloyat iqtisodiyoti 1,4 barobar o'sib, qariyb 100 trillion so'mga yetdi.

ko'proq oldinda turgan maqsad va vazifalar haqida o'ylash muhimroq. Negaki, O'zbekiston 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yetkazishdek juda katta marra oldi. Bu esa, o'z navbatida, yangi O'zbekiston taraqqiyotining navbatdagi shiddatli bosqichiga o'tish degani.

Shu ma'noda, Prezidentimiz lavozimiga kirishish tantanali marosimida "Odamlar endi bizdan yangi amaliy ishlarni kutaypti. Millionlab insonlar — ota-onalarimiz, opa-singillarimiz, o'g'il-qizlarimiz bugun bizga umid va ishonch bilan ko'z tikib turibdi. Ana shunday umid va ishonchni oqlash, erishgan yutuqlarimizni yangi natijalar bilan mustahkamlash bizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylinishi shart", dedi.

Toshkent viloyatida ham iqtisodiy barqarorlik, aholi farovonligini oshirish yo'lida kelgusi yetti yillik uchun juda katta marra belgilab olingan. Davlatimiz rahbari bu borada viloyat saylovchilari bilan o'tkazgan uchrashuvda alohida to'xtalib o'tdi.

Shavkat Mirziyoyevning bu galgi Saylovoldi dasturini ham aholi yadkallik bilan iliq qarshi oldi. Negaki, bugun xalqimiz davlatimiz rahbarining qat'iy siyosiy irodasi va tashabbusi bilan kechayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida salmoqli ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotganini ko'rib, bilib turibdi, e'tirof etaypti.

Prezidentimiz viloyat ahli bilan uchrashuvda har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish, turmushini yanada yaxshilash, ijtimoiy masalalarni hal qilishda mahallani markaziy bo'linga aylantirish, odamlarni hayotdan rozi qilish uchun barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, suv va yer resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan strategik maqsadlari bilan yaqindan tanishtirdi.

Unga ko'ra, viloyat aholisiga munosib sharoit yaratish yo'nalishida mingdan ziyod bog'cha ochildi va 100 ming o'quvchi o'rni yaratish, 16 ta zamonaviy tibbiyot muassasasi hamda 4 ta perinatal markaz tashkil etish rejalashtirilgan.



350 dan ziyod mahallada 4 ming kilometr ichki yo'l va 100 dan ziyod ko'prik qurish, 5 ming kilometrdan ziyod elektr tarmog'i va 1400 ta transformatori yangilash, ichimlik suv va oqova tarmoqlarini ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. 2024-yildan Bekobod, Xo'jaket va Angren yo'nalishlarini poytaxt

bilan bog'laydigan 10 ta elektropoyezd harakati yo'lga qo'yiladi.

Olmaliq va Ohangaron shaharlarida mis sanoati klasterini rivojlantirish orqali mis mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2030-yilga qadar 2 karra ko'paytiriladi. Janubiy koreyalik hamkorlar bilan 1,5 milliard dollar investitsiya hisobiga 50 gektar maydonda yuqori texnologiyalar texnoparki tashkil qilinadi va elektronika, yarimo'tkazgichlar, mikroshemalar ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushiriladi.

Chirchiq shahri chinakam innovatsion kimyo sanoati klasteriga aylantirilib, "Ximgrad" hududida qiymati 300 million dollarlik 23 ta loyiha amalga oshiriladi. Angrendagi qurilish materiallari klasterida 1 milliard dollar qiymatidagi 40 ta loyiha bajariladi.

Viloyatdagi sanoatlashuv darajasi yuqori bo'lmagan tumanlar alohida yondashuvlar asosida rivojlantiriladi. Jumladan, Bekobod va Piskent tumanlari oziq-ovqat sanoatiga, Bo'ka tumani esa to'qimachilik sanoatiga ixtisoslashadi.

Turizm haqida gap ketganda, Toshkent viloyatining bu boradagi salohiyatini alohida e'tirof etish joiz. Birgina Bo'stonlik tumanining "O'zbekiston Shveysariyasi" deya ta'riflanishi ham viloyatning turizmni rivojlantirish imkoniyatini naqadar keng ekanidan dalolat beradi. Mana shulardan kelib chiqib, Bo'stonliqdagi "Chorvoq" turizm zonasida 700 million dollar investitsiya hisobiga 20 ming o'rinni 100 ta mehmonxona ishga tushirildi, Chimyon — Bildirsoy — Nanay kurort hududida fransiyalik investorlar bilan birga 200 million dollarlik turizm kompleksi barpo etiladi.

Saylovoldi dasturidagi bu kabi rejalarni ro'yobga chiqarish uchun alohida dastur qabul qilinib, bunga jami 35 milliard dollar yo'naltiriladi.

Yeti yillik strategik rejada mamlakatimizda qurilish ko'lamini kengaytirish maqsadida ushbu sohani yanada rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada, avvalo, 1 million xonadonli uy-joylar qurish bo'yicha katta marra belgilab olingan. Shu bois, uy-joy qurish uchun respublika bo'yicha 2 ming gektar yer taklif

Ixtisoslashgan yirik qurilish klasterlari soni hozirgi 30 tadan kamida 60 taga yetkaziladi, salohiyatli quruvchilarga maxsus texnika va aylanma mablag' uchun 1 milliard dollar resurs ajratiladi. Yurtimizda ishlab chiqarilmaydigan qurilish materiallari va maxsus texnika uchun bojxona imtiyozlari 2030-yilgacha uzaytiriladi. Bundan tashqari, aholining kredit to'lovlarini qaytarishga yo'naltirilgan mablag'lari daromad solig'idan ozod qilinadi. "Mening birinchi uyim" dasturi doirasida viloyatlarda yuz minglab oilalarga mo'ljallangan ijtimoiy uylar barpo etiladi.

Shu bilan birga, yil yakunigacha 50 yil oldin qurilgan uylarning joriy holati, jumladan, zilzilaga chidamliligi to'liq o'rganiladi, aholi zich bo'lgan hududlarda "bo'yiga o'stirish" tamoyili asosida 2-3 qavatli eski uylar o'rinda yetti qavatdan yuqori zamonaviy uy-joylar barpo etiladi. Bunda renovatsiya dasturlari faqat va faqat fuqarolarning roziligi va keng jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilinadi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan aholi punktlarining bosh rejalarni tuzish masalasi ham g'oyat sinchkovlik bilan o'rganilib, bu yo'nalishda puxta rejalari ishlab chiqilib, muhim tashabbus va g'oyalari ilgari surilganini ko'rish mumkin. Xususan, 2025-yilga qadar 25 ta shahar, 2030-yilgacha esa barcha aholi punktlari, shu jumladan, Toshkent viloyatining 22 shahar va tumani, shuningdek, qishloqlar bosh rejalarni ishlab chiqish to'liq yakunlanadi. Bunda bosh rejalarni ishlab chiqish jarayoni aholi va tadbirkorlarga ochiq-oshkora va shaffof bo'lishi, buning uchun alohida portal ishga tushirilib, ularning tashabbus va takliflari, albatta, inobatga olinishi ko'zda tutilgan.

Qurilish ishlari sifati va xavfsizligini ta'minlash bundan buyon ham ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi. Eng avvalo, Yaponiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, AQSHning bino-inshootlar bo'yicha qurilish xavfsizligi me'yorlari asosida yangi standartlar joriy etilib, sohadagi kadrlarni tayyorlash tizimi qayta ko'rib chiqilishi maqsad qilingan.

Kelgusi yetti yilda uy-joy qurilishi va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash bo'yicha tashabbuslarni amalga oshirish uchun 50 milliard dollar yo'naltirilishi ko'zda tutilmoqda.

Bu yurtimizning boshqa hududlari bilan bir qatorda, viloyatimizda ham ko'plab zamonaviy ko'p qavatli uylar qurilishi, ijtimoiy infratuzilma aholining tobora oshib borayotgan talabiga mos rivojlanishidan dalolat beradi.

Bir so'z bilan aytganda, bugun Toshkent viloyati mamlakatimizda poytaxti bilan uzviy bog'langan holda rivojlanib, yaqin 10 yilda kamida zamonaviy va aholi uchun qulay, ta'limga, tibbiyot va biznes markazi bo'lgan hududga aylinishi shubhasiz.

Shu maqsadlarga erishish yo'lidagi harakatlardan bugundan boshlangan. Jumladan, Prezidentimizning viloyatimizga kechagi tashrif chog'ida bir qator yangi sanoat, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy soha majmualarini ishga tushirish marosimi bo'ldi. Bular — Ohangaron tumanidagi "Tashkent Konch sement", Quyi Chirchiq tumanidagi "Tashkent koton tekstil", Yuqori Chirchiq tumanidagi "Aziya Tashkent Tekstil", "Sal-yubris Vita", Angren shahridagi "Angren kaolin", "Sentral Aziya Kemikal", Nurafshon shahridagi "Agro Nyu Drip", Chirchiq shahridagi "Sharq Tyubs", Parkent tumanidagi "Samsarak fayz" va "Shabnam Elegant". Bu korxonalarda sement, ip-kalava, to'qimachilik, farmatsevtika, boyitilgan kaolin, kimyo mahsulotlari, tomchilatib sug'orish shlanglari, rangli metallar ishlab chiqariladi. Umuman, mazkur korxonalarda 3 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratildi.

Bir so'z bilan aytganda, ertangi farovon kelajagimizni buniyod etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yuzaga chiqarishga kamarbasta bo'lish har birimizning bosh maqsadimizga aylangan lozim.

Prezidentimiz o'z lavozimiga kirishish tantanali marosimida ta'kidlaganidek, "Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak poydevori" degan shior bugundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik faoliyat dasturiga aylinishi shart".

TAHLIL VA TAQQOS

MILLIY HISOBLAR TIZIMI
XALQARO USLUBIYATI

UNING SAMARASI NIMALARDA KO'RINADI?



Bahodir BEGALOV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligi direktori,
iqtisod fanlari doktori,
professor

Mamlakatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning statistik ko'rsatkichlarda to'liq aks ettirilishi keng ko'lamli islohotlar natijasini chuqur tahlil qilish, shuningdek, berilayotgan imtiyozlar, kiritilayotgan investitsiyalar samaradorligini to'g'ri baholash, ular asosida xolis qarorlar qabul qilish, samarali reja hamda dasturlar ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur holat milliy hisoblar ko'rsatkichlarini xalqaro uslubiyotlarga muvofiqlashtirishning dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi.

Milliy hisoblar tizimi (MHT) iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalovchi hisoblar va jadvalning muayyan to'plami shaklida tuzilgan, o'zaro bog'liq statistik ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradigan xalqaro uslubiyat bo'lib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha jabhalarini o'rganishga xizmat qiladi.

MHTning nazariy asoslari vujudga kelishi hamda rivojlanishi ko'p yillik tarixga ega. Uning xalqaro miqyosda tan olingan birinchi standarti "MHT — 1953" hisoblanadi. Ushbu qo'llanma 1968, 1993 va

2008-yillarda yangilanib, takomillashtirildi. "MHT — 2008" xalqaro standarti 2009-yilda BMT Statistika komissiyasining 40-sessiyasida qabul qilinib, ushbu qo'llanmada bir qator muhim iqtisodiy jarayonlarning statistik ko'rsatkichlarda ifodalash uslubiyati takomillashtirilgan.

Dunyoda MHTning joriy etilishi

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning aksariyati milliy hisoblar ko'rsatkichlarini BMT va Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ)ning "MHT — 2008" xalqaro standarti qoidalariga moslashtirmoqda. XVJ ma'lumotlariga ko'ra, unga a'zo bo'lgan 193 mamlakatdan bittasi "MHT — 1968", 56 tasi "MHT — 1993", 136 tasi "MHT — 2008" xalqaro standarti qoidalarida milliy hisoblar ko'rsatkichlarini shakllantirib kelmoqda.

MDH davlatlarning esa 5 tasi "MHT — 1993", 6 tasi "MHT — 2008" xalqaro standarti qoidalarida milliy hisoblar ko'rsatkichlarini yuritadi.

O'zbekistonda jarayon qanday kechmoqda?

O'zbekiston milliy statistika amaliyotiga MHT xalqaro uslubiyatini joriy qilish ishlari Vazirlar Mahkamasining 1994-yildagi 433-sonli qaroriga asosan boshlangan bo'lib, Prezidentimizning 2019-yil 17-yanvardagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini" Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 9-apreldagi "Davlat boshqaruvining ochiqliqi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari MHTni statistika amaliyotiga keng joriy qilishni yanada jadallashtirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

2017-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi) tomonidan milliy hisoblar ko'rsatkichlarini hisoblash uslubiyatlarini

"MHT — 2008" xalqaro standarti qoidalariga muvofiqlashtirildi hamda ular asosida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

MHT, davlat moliyasi statistikasi va to'lov balans ko'rsatkichlari o'zaro muvofiqlashtirildi. Bunda YIM hisob-kitoblarini davlat moliyasi statistikasi va to'lov balans ma'lumotlariga muvofiq ravishda amalga oshirish hamda qo'mitaning rasmiy veb-saytida e'lon qilib borish yo'lga qo'yildi. Ushbu hisob-kitoblar asosida YIM, u bilan bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning



2010-yildan yillik va 2017-yildan choraklik dinamik qatorlari shakllantirilib, e'lon qilindi.

YIMni diskret asosida hisoblash tajribasini yo'lga qo'yish orqali choraklik milliy hisoblar joriy etildi. Uch oylik milliy hisoblarni olib borishning maxsus tartibi belgilandi.

"Resurslar va ishlatilish" jadvallarini tuzish tajribasi takomillashtirildi. Korxonalarining ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini tarkibini o'rganish maqsadida 23 turdagi savolnomalar tuzildi hamda 2020-yilning may-avgust oylarida respublikaning barcha hududlarida jami 31 ming 961 ta xo'jalik yurituvchi subyektlar (nomoliyaviy korxonalar, banklar va sug'urta tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari)ni qamrab olgan holda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Kuzatuv natijalariga ko'ra, aniqlangan "Xarajatlar — ishlab chiqarish"ning yangilangan koeffitsiyentlari asosida



YIMni yakuniy iste'mol usulida hisoblashda davlat boshqaruvi organlarining iste'mol xarajatlari "Davlat boshqaruvi organlari funksiyalarining tasnifi" bo'yicha shakllantirildi.

Yakuniy iste'mol usulida hisoblanadigan YIM tarkibida uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari ko'rsatkichini "Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasnifi" asosida yuritish yo'lga qo'yildi.

Kapital bilan operatsiyalar hisobi "Asosiy fondlar tasniflagichi"ni joriy qilish orqali takomillashtirildi. Aktivlarining turlari bo'yicha tasniflash amalga oshirildi.

Uy-joy egalari tomonidan o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlarini baholash "MHT — 2008" xalqaro uslubiyatiga moslashtirildi va bu yo'nalishda uslubiy nizam tayyorlandi. O'z uyida yashash bo'yicha shartli xizmatlarni qo'shgan holda, YIM va u bilan bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yillik davriylikda 2010-yildan va choraklik davriylikda 2016-yildan qayta hisoblandi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini baholovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi) ning "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot statistikasini yuritish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat yig'ma ko'rsatkichlar tizimini joriy etish to'g'risida"gi qo'shma qarori imzolandi. Ushbu qaror bilan "Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat" yig'ma ko'rsatkichi hamda uning tarkibiga kiruvchi faoliyat turlari ro'yxati tasdiqlandi.

"Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasi bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmini hisoblash tartibi" ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.

2019-2020-yillar uchun "Resurslar va ishlatilish" jadvalini shakllantirilib, foydalanuvchilarga taqdim etildi.

2020-2021-yillar davomida XVJ va Osiyo taraqqiyot banki (OTB)ning milliy hisoblar statistikasi bo'yicha texnik ko'mak missiyalari doirasida "Resurslar va ishlatilish" jadvalini tuzish tajribasi takomillashtirildi. Natijada amaldagi 81 ta tarmoq va 81 xil mahsulot ko'rsatkichlari 143 ta tarmoq va 143 xil mahsulotlar kesimiga yetkazildi.

Xalqaro tajribani o'rganish hamda "Resurslar va ishlatilish" jadvallarini tuzish amaliyotini takomillashtirish maqsadida "Tovarlar va xizmatlar resurslari va ishlatilish" jadvalini tuzish bo'yicha uslubiy nizam" ishlab chiqildi.

Statistik ko'rsatkichlar hisob-kitoblari xalqaro tasniflagichlar joriy etildi.

OBOD MANZILLAR



ESAYOTIR YANGI HAYOT NASIMI

Bundan o'n besh yillar burun qorasuvliklar ham yondosh mahallalarda yashovchi tumandoshlari kabi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanardi. Aholi, jumladan, yosh yigit-qizlari ham zovur bo'yalarida sigir boqib, dalada ketmon chopib, shuning ortidan tirikchilik o'tkazardi. Mebelsozlik borasidagi imkoniyat va salohiyat ularga ham sirli, bamisoli ochilmagan qo'riq edi.

Mana, o'n-o'n besh yilning nari-berisida avval bitta, keyin uchta, so'ngra to'rtta mebel do'koni ochildi. Qo'ni-qo'shnisining daromadidan havasi ortgan mirishkor-u chorvador qorasuvliklar xonadonlarini yangidan tiklab, mebelsozlikka ixtisoslashtirdi. Keyin faqat olibsotirlik, chayqovchilik bilan emas, mebelni shu yerning o'zida ishlab chiqarib, xaridorlarga mahsulotni birinchi qo'ldan yetkazish harakatiga tushdi.

Shu zayl birin-ketin qo'sh qavatli do'kon va sexlar, imoratlar qad rostlandi. Kechagi dehqon va cho'ponlar bugun hunarmandga, ishbilarmonga aylandi, tadbirkor bo'ldi. Chorva esa ro'zg'orning barakasi, hali ham og'ilda bir bosh sigir, bir bosh buzoq bor, tomorqa ham endi jo'yak olingan oddiy yer emas, zamonaviy issiqxona.

Qorasuvliklarning turmushi mana shu tarzda o'zgaradi. Bu yerdan esgan yangi hayot nasimi Toshkent viloyatiga, butun O'zbekistonga ovoza bo'layotir.

Albatta, bu borada Prezidentimizning

HAVASDAN TUG'ILGAN HAYRAT

Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi Qorasuv dahasi mitti shaharchaga aylanib bo'lgan. Dahadan o'tgan Toshkent yo'li ko'chasining ikki yonida ko'p qavatli zamonaviy binolar qad rostlab, ko'cha ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Qorasuvga yondosh mahallalarda esa o'nlab ko'p qavatli uylar qurildi. Darvoqe, O'rta Chirchiq tumanining yangi ma'muriy markazi ham aynan Qorasuv dahasi yaqinida joylashgan. E'tiborli jihati, aynan mana shu hudud mebelsozlik bilan, qo'ligul hunarmandlari bilan butun O'zbekistonga, Markaziy Osiyoga tanilyapti. U yerdagi Qorasuv, Tinchlik va Fayzobod mahallalari chinakam hunarmandlar, haqiqiy mebelsozlar maskaniga aylanib ulgurgan.

2021-yil 21-iyundagi "Respublika hududlarida mebelsozlik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori muhim dasturlamal vazifasini o'tamoqda.

Aholi turmush darajasi va yangi qurilayotgan uy-joylar sonining oshishi natijasida mebelsozlik sanoati mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish, respublika hududidagi mebel ishlab chiqaruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xalqaro standartlarga javob beradigan hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan ushbu muhim hujjat mamlakatimizdagi minglab mebelsozlar qatori qorasuvlik tadbirkorlar uchun ham ko'ngildagi gaplar bo'ldi.

Hozirgi kunda O'rta Chirchiq tumanidagi Qorasuv, Tinchlik va Fayzobod mahallalaridagi xonadonlarda ishlab chiqarish maydonlari kichik, ularni kengaytirish imkoniyati mavjud emas. Qolaversa, elektr ta'minotida uzilishlar bo'lib turadi. Ishlab chiqarish jarayonidagi uskunalar shovqini



QORASUV — MEBELCHILAR SHAHARCHASI

atrofda yashovchi aholi uchun noquylayliklar tug'dirayotgani ham haqiqat. Shuningdek, tayyor mahsulotni saqlash uchun sharoit yetarli emas, yul mashinalari harakatlantirishida ham noquylayliklar yuzaga kelmoqda. Davlatimiz rahbarining yuqoridagi qarorida esa shu kabi qator muammolarga barham berilishi ko'zda tutilgan.

— Prezidentimiz qarori ijrosini ta'minlash uchun O'rta Chirchiq tumanida 25 gektar hududda klaster usulida mebel mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat zonasini tashkil qilish mo'ljallangan, — deydi O'rta Chirchiq tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i Mahmud Po'latov. — Ushbu kichik sanoat zonasini tashkil etilgach, mebelchi tadbirkorlar uchun bir qator quylayliklar yaratiladi, ular faoliyatini yanada kengaytirish uchun shart-sharoit hozirlanadi.

Mazkur qaror ijrosi doirasida 2021-yil 15-iyundan boshlab 2021-2024-yillarda yillik tushumida tayyor mebel mahsulotlari eksportidan tushum ulushi kamida 30 foizni tashkil qiladigan mahalliy korxonalarining xomashyo importi uchun sarflangan transport xarajatlari uchun 50 foizni Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan qoplanadi.

Binobarin, 2024-yil 1-yanvargacha qadar mebel ishlab chiqarishga ixtisoslashgan eksport qiluvchi korxonalariga mahsulotlarni barcha davlatlarga, jumladan, qo'shni davlatlarga eksport qilishda avtomobil va temir yo'l tashish xarajatlari uchun 50 foiz, biroq mahsulot eksport qiymatining (transport xarajatlari) avtomobil transportida 5 foizdan, temir yo'l transportida 7 foizdan ko'p bo'lmagan miqdordagi xarajatlar ham Eksportni rag'batlantirish agentligi hisobidan to'lab beriladi.

"Jannat makon" yorlig'i ostida mebel ishlab chiqaruvchi va gilam savdosi bilan shug'ullanuvchi "Qorasuv mebel savdo" oiliyviy korxonasi nafaqat O'rta Chirchiqda, balki poytaxt va yondosh viloyatlarda ham og'izga tushgan. Mahsulotlarini hatto qoraqalpoq eligacha yetkazib beradi. Bu korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlar ancha xaridorgirli va yuqori sifati bilan don taratgan. Narxi ham hamyonbop. Umumxalq bayramlari arafasida tez-tez o'tkazib turiladigan turli aksiya va chegirmalar paytida kelsangiz, pulingiz o'zingiz bilan qaytadi, deya vering.

Mana, o'n yildan oshibdi, Rahmon Otaqulov rahbarligidagi ishbilarmen va hunarmandlar jamoasi mebelchilik bilan shug'ullanadi. 3,5 gektar maydonda ishlab chiqarish zavodi faoliyat yuritmoqda.

Mazkur jarayonlarning yakuniy bosqichi sifatida moliyaviy vositachilik xizmatlari hisob-kitoblari "MHT — 2008" xalqaro uslubiyati talablari asosida XVJ va OTB ekspertlari tavsiyasiga muvofiq, sohada "Bilvosita o'chanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari ishlab chiqarishini hisoblash bo'yicha uslubiy nizam" asosida 2017-2022-yillarda amalga oshirildi.

Bu xizmatlar hajmi "MHT — 1993" uslubiyati bo'yicha moliyaviy vositachilar tomonidan olingan va to'langan foizlar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan hamda shartli tarmoqning oraliq iste'moli sifatida boshqa xizmatlarga qo'shgan holda aks etirilgan.

"MHT — 2008" uslubiyati bo'yicha esa moliyaviy vositachilik xizmatlari hajmi kredit (depozit)larning foiz stavkalari va bazis stavkasi (kreditlar va depozitlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi) o'rtasidagi farqni hisobot davridagi kredit (depozit)larning o'rtacha qoldig'iga ko'paytirish orqali institutsional sektorlar kesimida hisoblandi.

Ushbu uslubiyat bo'yicha moliyaviy vositachilik xizmatlari hajmi iqtisodiy faoliyat turlarining oraliq iste'moli hamda uy xo'jaliklarining yakuniy iste'moliga taqsimlandi.

Uslubiyatning joriy etilishi natijasida 2021-yil uchun nominal YIM hajmi 734,9 trillion so'mdan 738,4 trillion so'mga (0,5 foizga) oshdi va YIMning real o'sish sur'ati o'zgaradi (7,4 foiz saqlanib qoldi).

Oldinda turgan asosiy vazifalar

O'zbekiston statistika sohasida MHTni takomillashtirish bo'yicha kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ishlar quyidagilardan iborat:

— YIMni doimiy narxlarda hisoblash uslubiyatini yanada takomillashtirish (bazis yilning o'rtacha narxlarida hisoblash va ikki yoqlama deflyatsiya qilish usulini joriy etish);

— "Xarajatlar va ishlab chiqarish" jadvalini doimiy narxlarda baholash amaliyotini joriy etish;

— xalqaro taqqoslash dasturining navbatdagi global bosqichida ishtirok etish;

— kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash amaliyotini xalqaro tavsiyalar asosida takomillashtirish;

— MHT sohasida kadrlar salohiyatini yanada oshirib borish.

Qayd etilgan asosiy yo'nalishlar MHTga tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, mavjud muammolarni bartaraf etish, qo'yilgan vazifalarni to'liq bajarish natijasida MHT ko'rsatkichlari sifati va shaffofligi yaxshilanishiga erishiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini yanada kengroq tavsiflash, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisob-kitoblarini xalqaro uslubiyatga muvofiqlashtirish orqali statistik ko'rsatkichlarning taqqoslash darajasini oshirish, shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarning xorijiy investorlarga yanada tushunarli bo'lishi hamda mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini va xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash kabi joiyib natijalarga erishish imkonini beradi.

Rossiyadan keltirilgan yog'och mahsulotlari sharqona naqsh va ziynat bilan chiroy o'chadi, vatandoshlarimizning xonadonini bezab, ko'zlarini quvnatmoqda.

Mebelchilik qorasuvliklar turmushini farovon, ro'zg'orini to'kis qilayotgani rost. Yuqorida sanab o'tganimiz — O'rta Chirchiq tumanidagi Qorasuv, Tinchlik va Fayzobod mahallalarida 1 ming 540 ta xonadon mavjud bo'lsa, shulardan 107 tasida kichik mebel sexlari faoliyat yuritadi. Ularning 84 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyat, oilaviy va xususiy korxonalar shaklidagi tadbirkorlik subyekti bo'lsa, 23 tasi yakka tartibdagi tadbirkordir. Ushbu mitti fabrikalarda salkam mingga yaqin ishchi mehnat qiladi, har biring oylik ish haqi o'rtacha 4-5 million so'm. Xonadonlardagi ushbu korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi esa 4,7 milliard so'mni tashkil etadi.

— Qorasuv mahallasi mebel va mebelsozlar bilan dovrug' qozondi, — deydi ushbu mahalladagi hokim yordamchisi Nuriddin Mavlonov. — Mahallada kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadini oshirishda ham mebelchilik drayver soha hisoblanadi. Hokim yordamchisi rostini aytdi. Mahallaning Temirchi ko'chasidagi har uch xonadonning birida kichik mebel fabrikasi bor. Unda mebel mahsulotlarining o'nlab turlari tayyorlanadi.

Shu kunlarda O'rta Chirchiq tumanidagi Qorasuv mahallasi va unga yondosh mahallalarda mebel ishlab chiqarishga mo'ljallangan kompleks qad rostlanmoqda. 7 gektar hududda barpo etilayotgan ushbu kompleksda 16 milliard so'mlik jami 16 ta loyiha mavjud. 12 milliard so'm bank krediti hisobiga amalga oshirildi. Pirovardida esa 1050 ta yangi ish o'rnini yaratildi.

Ushbu kompleks qurib bitkazilsa, mebel ishlab chiqarish bo'yicha ko'plab loyihalar yo'lga qo'yilib, sohada band bo'lgan aholi soni ikki mingdan ortadi, xonadonlarning o'rtacha oylik daromadi 18-20 million so'mga yetadi. Ayniqsa, 20 dan ziyod yangi savdo do'koni ochildi, mebel ishlab chiqarish hajmi 3 barobar ko'paydi.

Otabek ISROILOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI

Hozir dunyoda beshafqat raqobat, turli yo'nalishlardagi qarama-qarshilik va ziddiyatlar keskin tus olmoqda. Global muammolar — xalqaro terrorizm, ekstremizm, murosasizlik, savodsizlik, jaholat, qashshoqlik, zo'ravonlik, "ommaviy madaniyat", odam savdosi, qurol-yarog' va narkotik moddalar kontrabandasi, noqonuniy migratsiya kabi xavf-xatarlar kuchayib, insoniyat asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqod va qadriyatlarga putur yetmoqda. Bunda asosiy nishon sifatida yoshlar ko'rilmoqda.

hayotida iz qoldirayotgani ham sabab bo'lmoqda. Mutaxassislar fikricha, yoshlar global o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar ta'siri obyektiga aylangan.

Ma'lumotlarga ko'ra, koronavirus ta'lim tizimiga jiddiy salbiy ta'sir o'tkazgani ortida pandemiyaning eng yuqori pallasida 1,6 milliardga yaqin maktab o'quvchisi va talaba o'qishni to'xtatishga majbur bo'lgan. Natijada "ishlamaydigan, o'qimaydigan va muayyan kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lmagan" (NEET avlod) yoshlar qatlami paydo bo'ldi.

Xalqaro hamjamiyat va davlatlar bu borada tegishli chora-tadbirlarni ko'rmoqda. Xususan,



66

Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati davr shiddati va mamlakat taraqqiyotiga mos tarzda izchil rivojlanmoqda. Shubhasiz, yoshlarga oid davlat siyosatining turli zamonaviy tahdid va xavf-xatarlarga bardoshli tizim sifatida institutsionallashuvi yaqin istiqbolda o'z samarasini beradi. Zotan, yangi O'zbekistonda yoshlar masalasiga muammo emas, aksincha, imkoniyatlar manbai, yorqin kelajak poydevori sifatida qarash shakllanmoqda.

Prezidentimiz bunday degan edi: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iy bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak da-

maktblarining 49 o'quvchisiga bu takliflar AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi ta'lim borasida yetakchi davlatlar oliy ta'lim muassasalaridan kelgan. Shuningdek, joriy yilda Toshkent shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi B.Narimanov 5 ta xorijiy oliy

TARIXIY O'ZGARISHLAR

VA KATTA IMKONIYATLAR OSTONASIDA



Nasiba TURG'UNOVA, IIV akademiyasi dotsenti, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

Xalqaro va milliy rakurs uyg'unligi

BMT ma'lumotlariga ko'ra, bugun dunyoda 15 yoshdan 24 yoshgacha 1,2 milliard yoshlar bo'lib, bu dunyo aholisining 16 foizini tashkil etadi. Ularning qariyb 90 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda hissasiga to'g'ri keladi. Mutaxassislar fikricha, 2030-yilga borib, jahonda yoshlarning salmogi 7 foiz oshadi va deyarli 1,3 milliardga yetadi. Ushbu ko'rsatkichlar dunyoda yoshlar masalasiga e'tiborni va bu boradagi ishlarning dolzarbligini yanada oshiradi.

Dunyoda kuzatilayotgan turli transformatsiya jarayonlari, global o'zgarishlar katalamlarining keyingi avlodga adolati va ziddiyatsiz dunyoni meros qoldirish an'anasi ayrim hollarda buzmoqda. Yoshlar oldingi avlodlar davrida kuzatilmagan yangi o'zgarishlarga guvoh bo'lmoqda. Yangi tahdidlarga qarshi turishiga to'g'ri kelmogda. Bunga, jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanishi va uning ta'sirida yolg'on ma'lumotlar keng tarqalishi (infodemiya), demokratik qadriyatlar o'zgarishi tendensiyalari hamda ayrim mintaqalarda kuzatilayotgan qurolli to'qnashuvlarning yoshlar

yoshlar muammolari BMTning doimiy diqqat markazidagi masalalardan. So'nggi yillarda birgina mazkur tashkilot doirasida ushbu yo'nalishda 10 dan ortiq xalqaro hujjat qabul qilindi. Jumladan, BMTning Yoshlar jahon harakat dasturi yoshlarga taalluqli 15 ustuvor yo'nalishni o'z ichiga olgan.

Dunyoning ayrim davlatlarida turli demografik o'zgarishlar (masalan, yoshlar va keksalar qatlami o'rtasidagi nomutanosiblik ortib borayotgani, yigit-qizlar qiyofasi o'zgarib borishi va hokazo) kuzatilayotgan bir davrda yangi O'zbekistonda yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida urg'u berilayotgani hamda uning davlatimiz rahbari faoliyatining kun tartibidan muhim o'rin egallagan ta'hsingazov.

O'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan islohotlar natijasida davlatimizning yoshlarga munosabati, yondashuvi konseptual va strategik jihatdan o'zgaradi. Prezidentimiz nafaqat ichki siyosatda, balki xalqaro maydonda, yirik tadbirlar minbaridan turib ham yoshlar bilan bog'liq muammolar yechimi jahon hamjamiyati uchun kechiktirib bo'lmaydigan, o'ta dolzarb masala ekanini aytmoqda.

Xalqaro ahamiyatga ega turli formatdagi uchrashuvlarda ham yoshlar masalasi Prezidentimiz nutqidagi muntazam o'rin egallaganini ko'rish mumkin. Xususan, Markaziy Osiyo yoshlari forumini o'tkazish, yoshlarga doir siyosatning umumiy yo'nalishlari to'g'risida ko'p tomonlama bitim tayyorlash, doimiy faoliyat yuritadigan Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari yoshlari kengashini tuzish kabi tashabbuslar shular jumlasidan.

Bularning hammasi O'zbekistonning yoshlar masalasiga befarq emasligi va bu borada bildirilayotgan tashabbuslarning jahon hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotganidan dalolat.

Yoshlar masalasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham alohida e'tiborga olindi. Joriy yilning 14-iyul kuni davlatimiz rahbari tantanali marosimda so'zlagan nutqida ham yoshlarga alohida yuzlandi. Ularni ruhlantirdi.



Barqaror taraqqiyot uchun poydevor

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlar bilan ishlashda vertikal boshqaruv tizimi shakllantirildi. Shuningdek, tarixan qisqa muddatda zamonaviy shart-sharoitlar va rivojlanish tendensiyalariga mos 100 dan ortiq qonun hujjati qabul qilindi. Huquqiy-me'yoriy asos yaratilib, institutsional tuzilmalar shakllantirildi.

Yoshlarning turli sohalardagi manfaatini himoya qilish maqsadida "Yosh olimlar kengashi", "Yosh ijodkorlar kengashi", "Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish markazi", "Imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlar markazi" kabi 30 ga yaqin nodavlat notijorat tashkiloti tashkil qilindi.

O'zbekiston amaliyotida butunlay yangi tizim, ya'ni yoshlarning dolzarb muammolarini o'rganish bilan shug'ullanadigan maxsus Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti ochildi.

Yoshlar salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishga asoslangan yangi yondashuv asosida 5 muhim tashabbus ishlab chiqildi va yoshlar orasida ommalashtirildi.

Yoshlar bandligini ta'minlash, muammolarini hal etishga qaratilgan yangi tizim — "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturlari" joriy etildi. Yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ushbu yo'nalishda qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi uch yilning o'zida 250 ming nafar yigit-qizga 6 trillion so'mdan ziyod imtiyozli kredit ajratildi. Mamlakatimiz bo'yicha 210 ta "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi" tashkil etilib, 4 trillion so'mlik 2,5 mingta loyiha amalga oshirildi. Natijada yosh tadbirkorlar soni 2 karra ko'payib, 200 mingdan oshdi.

Statistik raqamlarga ko'ra, mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 milliondan oshadi yoki aholining 55 foizini tashkil qiladi. Mehnat bozoriga har yili 600 ming yosh kirib kelayotgan bo'lsa, kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga yetadi.

raja ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".

2023-yil 11-aprel kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz yoshlar bilan ishlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish haqida gapirib, bu borada bir qator yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, "Yangi O'zbekiston yoshlari tashabbuslari" jamg'armasi va elektron platformasi tashkil qilinishi belgilandi. Jamg'armaga 100 million dollar yo'naltirilib, bu mablag' iqtidorli yigit-qizlarning eng yaxshi g'oya, startap va loyihalarga qulay va yengil shartlarda, zarur bo'lsa, foizsiz ajratiladi.

IT parklar bo'yicha tajribadan kelib chiqib, hududlarda "Kreativ park"lar ham tashkil etiladi. Ularga IT park rezidentlariga berilgan imtiyoz va yengilliklar qo'llanadi. "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari ham ko'proq kasb o'rgatishga, bandlikni ta'minlashga xizmat qilishi kerakligi ta'kidlandi. Shu bois, endi bu jamg'arma orqali turdosh xizmatlardan bir vaqtning o'zida foydalanish imkoniyati yaratilishi belgilandi.

Mamlakatning "oltin fond"i

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish obyekti zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda. Buning uchun barcha shart-sharoit va imkoniyat yetarli. Xususan, zamonaviy Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar, ijod maktablari hamda Temurbeklar maktablari tashkil etildi.

Natijalar allaqachon ko'rina boshlagan. 2021-yilda Prezident maktablari o'quvchilari jami 3,3 million dollarlardan ortiq grant takliflarini oldi. Toshkent, Namangan, Nukus va Xiva shaharlarida joylashgan Prezident

DAXLDORLIK



YANGI FARG'ONA

CHINAKAM BAXTNI HIS ETAYOTGAN INSONLAR BILAN OBOD BO'LMOQDA

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV, Farg'ona davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor

Bir xalqning tinch va farovon hayot kechirishi, taqdiridan rozi bo'lib, shukrona bilan yashashi, jamiyatda insonning qadr-qimmatini ustun bo'lishi, farzandlar musaffo osmon ostida, gullab-yashnayotgan Vatan bag'rida kamolga yetishi, avvalo, yurt rahbariga, katta qarvonni nurli manzillar sari olg'a boshlab ketayotgan oqil sarbonga bog'liq.

fermerlar, klasterlarga yaratilgan keng imkoniyatlar, qulay infratuzilma, transport logistikasi, tadbirkorlardagi shiddat, odamlardagi yuqori kayfiyat aholining turmush darajasini yaqqol ko'rsatib berdi.

Bag'dod tumani "Xitoy" mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib o'tgan uchrashuv ham mahalla ahlining qalbida bir umrga muhrlanib qoladigan bo'ldi. Mahalla fuqarolarining hayajoni o'zgacha. Chunki o'zi tanlagan, saylagan inson bilan uchrashish zavqi ko'zlardagi yolginda aks etdi. Qishloq yoshlari bilan samimiy muloqot olib borgan davlatimiz rahbari ularning ezgu maqsadlari, orzu-niyatlarini qo'llab-quvvatladi, amalga oshishiga ruhlantirdi.

— Bu yil oliy o'quv yurtiga kirmoqchi edim. 5 yil staji borlar olinar ekan. Tarbi-

yachilikka kirganimga 2 yil bo'lgandi. Stajim yetmay qoldi... — deb ko'zida o'kinch va yuzida ming istihola bilan dardini aytdi Davlatoy.

"Prezidentimiz nomidan ertadan o'qishga kirdingiz". Davlatimiz rahbarining otalarcha muruvvatidan esa ayolning ko'zi jiqqa yoshga to'ldi. "Yaxshi o'qib, o'qishlarni yaxshi tugatsangiz, men sizdan minnatdor bo'laman". Chin yurakdan, mehr bilan aytilgan shu so'zlar besh nafar qishloq yoshlarining hayot o'zanini o'zgartirib yubordi va farg'onalik yigit-qizlar qalбини to'lg'inlantirdi. Mahalla ahlining quvonchini ko'rsangiz edi... Qishloqda, butun Bag'dodda bayram bo'lib ketti. Bu

g'amxo'rlik yoshlarimizni astoydil o'qishga, yangiliklar qilishga, marrani baland olishga, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga undagan ayni haqiqat.

E'tirof etish kerak, mamlakatda ro'y bera boshlagan islohotlar to'loqida Farg'onaga ham yangi nafas, yangi hayot kirib keldi. Bu yillar farg'onaliklar uchun yangi taraqqiyot yillari — Yangi Farg'ona davri bo'ldi. Ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish va tadbirkorlikka keng yo'l ochish, yangi ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish hamda aholining turmush farovonligini oshirish, tibbiy xizmatlar va ta'lim sifatini jahon standartlariga moslashtirish, shahar-qishloqlarni obodon-



lashtirish borasida erishilgan natijalarni har bir farg'onalik o'z hayotida sezdi, his etdi. Qisqa muddatda viloyatning yalpi hududiy mahsulot hajmi qariyb 56 trillion so'mga teng bo'ldi. Prezidentimizning taklifiga ko'ra, qurilish materiallarini ishlab chiqarish Farg'onaning drayver sohalaridan biriga aylandi. Ta'kidlanganidek, bir paytlar 50 million dollar xorijiy investitsiya olib kirish muammo bo'lgan Farg'ona viloyatiga birgina 2022-yilning o'zida 957,4 million dollar investitsiya jalb qilindi. Eksport hajmi esa 2 barobar ko'paydi. Bugun viloyatda 55 mingdan ziyod tadbirkor faoliyat yuritmoqda, 12 mingga yaqin sanoat korxonasi ishlab turibdi. Hududda elektromobil ishlab chiqarilmoqda.

Davlatimiz rahbarining yangi O'zbekistonda bunyodkorlik maydoniga aylantirilgan Farg'ona misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bir paytlar yangi uylar 2-3 yilda bir qurilgan bo'lsa, hozir viloyatda 6 oyda butun boshli shaharcha barpo etilishiga erishildi. Yangi O'zbekiston massivlari barpo etilishida "Bag'dod tajribasi" andoza qilib olindi.

Bu islohotlar ko'lami oliy ta'lim tizimida ham yangi davrni boshlab berdi. Farg'ona

davlat universiteti misolida aytak, bir asrlik tarixga ega oliy ta'lim muassasamiz faoliyatida yangilanish bosqichi ro'yobga chiqdi. Ispaniyaning Webometrik, Avstraliyaning UniRank, Gruziyaning RUR kabi nufuzli xalqaro reyting tashkilotlari ro'yxatida yuqorilayotgan universitet Buyuk Britaniyaning mashhur THE (Times Higher Education) agentligi reytingida 14 indikatori bo'yicha yuqori o'rinni egalladi. Demak, ilm ahida, yoshlarda ta'lim olishga munosabat tubdan o'zgarayapti. Yondashuvlar butkul yangilana boshladi, soha to'liq isloh etilish davri boshdan kechirmoqda.

Sanayversak, muvaffaqiyatli odimlarning sanog'iga yetish mushkul. Muhimi, bunday salmoqli natijalarga qanday zahmat va mehnat, katta kuch bilan erishilayotganini xalqimiz, xususan, yoshlarimiz teran anglab borayotir. Odamlarning ertangi kunga ishonchi tobora mustahkamlanib, bugunidan rozilik hissi, islohotlarga daxldorlik tuyg'usi oshayotir. Shu bois, hayoti, taqdiri, kelajagidan ko'ngli to'lib, chinakam baxtni his etayotgan yurtdoshlarimiz mamlakatimizdagi islohotlarda faol ishtirok etishga shaylik rui bilan yashamoqda.

